



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

№1



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2026



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Elektron nashr. 2026-yil, yanvar.

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoiraz Azimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldix'o'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukurimova Dinara Rustamxanovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikrarov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongirathbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhriddinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoiraz Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyeich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyea Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
Abdukarimova Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

INSON KAPITALINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI.....	52
Dilnoza Ruziqulova Xoliqovna	
MAHALLIY BUDJET DAROMADLAR BAZASINI BAHOLASH SAMARADORLIGINI TAKOMILLASHTIRISH.....	56
Isoqov Zafarjon Zokirjonovich	
INNOVATSION IQTISODIYOTDA AYOLLAR TADBIRKORLIGINI RIVOJLANTIRISH BO'YICHA XALQARO TAJRIBA	60
Maksumova Umidaxon Sadikjonovna	
ОЛИГОПОЛИЯ И ТЕОРИЯ ИГР	64
Камилова Наргиза Абдукаххоровна, Наимов Самандар Раджабович	
ЦИФРОВЫЕ ИНВЕСТИЦИИ НА ЖЕЛЕЗНОДОРОЖНОМ ТРАНСПОРТЕ: НОВАЯ ЭРА ЭФФЕКТИВНОСТИ	67
Каракулов Фарход Зайпудинович	
MEVA-SABZAVOTCHILIK MAHSULOTLARINING EKSPORT SALOHİYATINI BOSHQARISH SAMARADORLIGINING INNOVATSION YECHIMLARI	72
Ergashev Jamshid Axmadaliyevich	
MOLIYAVIY AKTIVLARNING IQTISODIY MOHIYATI VA TIJORAT BANKLARIDA ULARNING SIFAT MEZONLARINI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI	77
Iskandarova Munisa Hasan qizi	
MOLIYAVIY RISKLARNI BOSHQARISHDA SUN'IY INTELLEKTNI QO'LLASH IMKONIYATLARI	82
Xojiyev Jaxongir Dushabayevich, To'xtayev Kamol Po'latovich	
MARKETING VA BOZOR IQTISODIYOTI SHAROITIDA TAYYOR KIYIMLARNING RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH YO'LLARI	87
Bababekova Gulchexra Baxtiyarovna	
NAMANGAN VILOYATI QURILISH MATERIALLARI SANOATIDA MODERNIZATSIYA JARAYONLARIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR VA ULARNING IQTISODIY AHAMIYATI	93
Odilova Malika Abdushukur qizi	
TURIZMNI RIVOJLANTIRISHDA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNI TAKOMILLASHTIRISH.....	98
Toshtemirov Xojakbar Qahramon o'g'li	
ТУРИЗМ КАК ФАКТОР УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ СТРАНЫ	103
Артикова Шохида Ильясовна	
MINTAQALARDA OZIQ-OVQAT SANOATI KORXONALARI INNOVATSION SALOHİYATINI BOSHQARISH METODOLOGIYASINI JORIY ETISHNING IQTISODIY SAMARADORLIGI.....	107
Dadamirzayev Muzaffar Xabibullayevich	
THEORETICAL ASPECTS OF SERVICES IN THE CONTEXT OF UZBEKISTAN'S ECONOMIC TRANSFORMATION	114
Umidjon Normurodov, Qodirov Yusufbek Suyunbek ugli	
РАЗВИТИЕ ПРЕДПРИЯТИЙ ОБУВНОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ В УСЛОВИЯХ ФОРМИРОВАНИЯ МАРКЕТИНГОВЫХ ИННОВАЦИЙ	120
Расулов Нозимжон Набиджонович	
QISHLOQ XO'JALIGI SOHASIDA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARNING JORIY QILINISHI VA UNI OZIQ-OVQAT XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHDAGI AHAMIYATI.....	125
Saburov Jumanazar Saliyevich	
KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISHNING IQTISODIY O'SISHGA TA'SIRI VA ICHKI BOZORNI KENGAYTIRISH IMKONIYATLARI	129
Mayliyeva Sadoqat Safayozovna	
ЭКОНОМИЧЕСКОЕ ЗНАЧЕНИЕ ТРАНСПОРТНОЙ ИНФРАСТРУКТУРЫ В УСТОЙЧИВОМ РАЗВИТИИ УЗБЕКИСТАНА.....	134
Убайдуллаев Худоёр Бахтиёр угли	



MINTAQANI BARQAROR RIVOJLANTIRISHDA PAXTA-TO'QIMACHILIK KLASSTERLARI SALOHIYATIDAN SAMARALI FOYDALANISHNING XORIJ TAJRIBASI	141
Xayitov Rustam Burxonovich	
BARQAROR MOLIYALASHTIRISH KONSEPSIYASIGA MUVOFIQ "YASHIL" INVESTITSIYALARNI RIVOJLANTIRISH.....	146
Abduraxmonov Alimardon Sodiq o'g'li	
BANK XIZMATLARI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA RAQAMLI MARKETINGDAN FOYDALANISH.....	151
Dushamov Maxmudjon Maksudbekovich	
HUDUDLARDA TURIZMNI RIVOJLANTIRISHNING AHAMIYATI VA ISTIQBOLLARI	159
Ibodova Dilsora Ibodovna	
INVESTITION PORTFELLARNI SHAKLLANTIRISH, BAHOLASH VA BOSHQARISH.....	165
Baymanova Mavlyuda Djurayevna, Abdullaeva Shohista	
KICHIK XIZMATLAR FAOLIYATINI RASMIYLASHTIRISH ORQALI AHOLI BANDLIGI KO'RSATKICHLARINI OSHIRISH.....	170
Xalimbetov Farxad Bagibekovich	
MONOPOLIYAGA QARSHI BOSHQARUV TIZIMINI RIVOJLANTIRISH: XORIJIY TAJRIBA VA MILLIY YONDASHUVLAR.....	173
Akbarov Jasur Ikromjon o'g'li	
СТАТИСТИЧЕСКАЯ ОЦЕНКА ДИНАМИКИ И СЕЗОННОСТИ ДОХОДОВ НАСЕЛЕНИЯ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН	179
Салиходжаева Умида Абдуакбар кизи	
SUN'IY INTELLEKT ASOSIDAGI TALABNI PROGNOZLASHNING CHAKANA MARKETING INNOVATSIYASINI TAKOMILLASHTIRISHDAGI ROLI	186
Ostonaqulova Gulsaraxon Muhammadyoqub qizi	
TEMIR YO'L YO'LOVCHI TASHISH KORXONALARI IQTISODIY SAMARADORLIGINI OSHIRISH MODELLARI	200
Eshboyev Ulug'bek Farxodovich	
AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA MOLIYAVIY HISOBOT VA AUDIT METOLOGIYASINI TAKOMILASHTIRISH	205
Zufarova Zilola Raxim qizi	
TIJORAT BANKLARI TOMONIDAN RISKLARNI BOSHQARISH MEXANIZMIGA TA'SIR QILUVCHI OMILLARNING EKONOMETRIK TAHLILLARI	216
Rahmonqulov Temirbek Eshmamatovich	
MULKIY SOLIQLARNING MAHALLIY BUDJET DAROMADLARINI SHAKLLANTIRISHDAGI TA'SIRINI BAHOLASH.....	222
Aliyarov Olim Abdug'aparovich	
AVTOMOBIL SANOATIDA MAHSULOT BILAN BOG'LIQ XIZMATLAR TASNIFI	231
Saidov Dilshodbek Razzakovich	
UY-JOY FONDINI SAMARALI TASHKIL QILISH VA TAKOMILLASHTIRISHNING XORIJIY TAJRIBALARI.....	236
Otajonov Tohirjon Xo'janazar o'g'li	
TURIZMNI IQTISODIYOTDA TO'G'RIDAN TO'G'RI TA'SIRINI STATISTIK TADQIQOTI.....	241
Jumanova Zilola Tuychiyevna	
RIVOJLANGAN DAVLATLAR BANK EKOTIZIMLARI VA O'ZBEKISTON BANK EKOTIZIMLARINING RIVOJLANISHI VA QIYOSIY TAHLILI	248
X.R. Aliyev	
O'ZBEKISTON OLIY TA'LIM TIZIMI UCHUN DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIGI ASOSIDA BOSHQARUV METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI	254
Abdullayev Javohir Abdumalik o'g'li	
OROL BO'YI MINTAQASIDA XIZMAT KO'RSATISH SOHASINI INNOVATSION BOSHQARISHNING TASHKILIY-IQTISODIY MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	259
Umarova Xusnora Dilmurod qizi	



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA ISHCHI KUCHIDAN SAMARALI FOYDALANISH ISTIQBOLLARI	264
Xolmurotov Salimbek Eshbekovich	
INNOVATSION KLASTERLARNI TASHKIL ETISH VA RIVOJLANTIRISHNING MOLIYAVIY MEXANIZMI	269
Quliyev Begimqul Melikovich	
ВОПРОСЫ ПОВЫШЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОСТИ УПРАВЛЕНИЯ ИННОВАЦИОННЫМИ ПРОЦЕССАМИ В КОММЕРЧЕСКИХ БАНКАХ	276
Ахмедов Самандар Сайфуллоевич	
АГРОЭКОТУРИЗМ КАК НАПРАВЛЕНИЕ ДИВЕРСИФИКАЦИИ ЭКОНОМИКИ СЕЛЬСКИХ ТЕРРИТОРИЙ УЗБЕКИСТАНА	281
Хайдаров Ойбек Зоирович	
THE IMPACT OF DIGITALIZATION ON SERVICE QUALITY AND CUSTOMER SATISFACTION IN THE HOUSEHOLD SERVICE SECTOR: EMPIRICAL EVIDENCE FROM SAMARKAND REGION	287
Pardayev Sherzod Xolmurodovich, Yuldosheva Zulfizar Sayfullayevna	
DEVELOPMENT OF INTERACTIVE MODELING METHODS FOR THE SYNTHESIS OF INTELLIGENT CONTROL SYSTEMS FOR TECHNICAL OBJECTS IN THE DIGITAL ECONOMY	293
Mamutova Aygul Kalmurzaevna	
TIJORAT BANKLARIDA INVESTITSIYA LOYIHALARINI MOLIYALASHTIRISHDA RISKLARNI BOSHQARISH MASALALARI	298
Abdurazakova Nasiba Sultanovna	
YANGI O'ZBEKISTON SHAROITIDA SOLIQ MA'MURIYATCHILIGI TRANSFORMATSIYASI VA UNING MOLIYAVIY XAVFSIZLIKKA TA'SIRI	303
Tashmuxeimova Yayra Atxamovna	
ZAMONAVIY AXBOROT TIZIMLARI ORQALI SOLIQ QARZDORLIGINI UNDIRISH MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH XORIJIY DAVLATLAR TAJRIBASI ASOSIDA TAHLIL	308
Maxmadustov Jalol Maxmadustovich	
TA'LIM MIGRATSIYASI VA INTEGRATSIYA KO'RSATKICHLARINI STATISTIK TAHLILI: YEVROPA ITTIFOQI (SIRIUS) TAJRIBASI VA O'ZBEKISTON AMALIYOTI	314
Abdullayeva Gulhayot Shuhratovna	
HUDUDIIY SANOAT KORXONALARI FAOLIYATINI KO'P OMILLI STATISTIK TAHLIL ETISHDAGI ILG'OR XORIJIY TAJRIBALAR VA ULARDAN FOYDALANISH YO'LLARI	319
Tag'oyev Feruz Yorqulovich	
RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ORQALI HUDUDIIY INVESTITSIYA MUHITINI TAKOMILLASHTIRISH: QASHQADARYO VILOYATI MISOLIDA TAHLIL VA TAVSIYALAR	326
Egamberdiev Abbasxon Sherali o'g'li	
KICHIK BIZNESDA INNOVATSION FAOLIYATNI TASHKIL ETISH VA RAG'BATLANTIRISH MEXANIZMLARI	331
Nurullayev Baxrom Botirovich	
YASHIL IQTISODIYOTGA O'TISHDA RIVOJLANGAN MAMLAKATLAR TAJRIBASIDAN FOYDALANISH	337
Ne'matova Mavsuma	
ZAMONAVIY IQTISODIYOTDA ISLOMIY MOLIYA VA NOBANK KREDIT TASHKILOTLARIDA STRATEGIK BOSHQARUVNING NAZARIY ASOSLARI	341
Galatov Abbas Alibekovich, Xalilov Nurullo Xamidillayevich	
IQTISODIY FAOLLIKNI OSHIRISHGA QARATILGAN DAVLAT FISKAL SIYOSATI HOLATI TAHLILI	346
Xudayberginova Nigora Turgunbayevna	
MEHNATGA HAQ TO'LAHNING MOHIYATI VA ULARNI HISOBGA OLIHNING ASOSIY VAZIFALARI	356
Anvar Raximov Maxmarasulovich	
"CRADLE TO CRADLE" VA "CRADLE TO GRAVE" KONSEPSIYALARINING UMUMIY VA XUSUSIY JIHATLARI	360
Sodikov Zokir Rustamovich	
MINTAQADA PARRANDACHILIK SANOATINING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISH BOSQICHLARI	366
Qarshiyev Obidjon Egamberdiyevich	



AKSIYADORLIK JAMIYATLARINING BARQAROR RIVOJLANISH STRATEGIYALARI VA MINTAQA IQTISODIYOTIGA TA'SIRI: KEYNESIAN YONDASHUV NUQTAI NAZARIDAN.....	370
Shermatov G'ofurjon G'ulamovich	
QURILISH KORXONALARIDA INQIROZGA QARSHI BOSHQARUVNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI (ROSSIYA TAJRIBASI)	377
O'rinboyev Doniyorjon Baxtiyorjon o'g'li	
RIVOJLANGAN MAMLAKATLARDA YASHIL XIZMATLAR SEKTORINING TRANSFORMATSIYASI.....	385
Aliqulova Laylo Ziyadin qizi	
VIRTUAL TA'LIM MUHITI ORQALI TALABALARNING MULOQOT KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH OMILLARI.....	390
Bozorova Muazzam Hamid qizi, Hakimova Mushtariybonu Hamid qizi	
MINTAQA IQTISODIYOTIDA TRANSPORT INFRATUZILMASINI TAKOMILLASHTIRISH KO'RSATKICHLARINI EKONOMETRIK MODELLASHTIRISH VA PROGNOZLASHTIRISH	395
Qo'ziyboyev Umarbek Ulug'bekovich	
ОЦЕНКА СТОИМОСТИ И РИСКОВ ПРЯМЫХ ИНОСТРАННЫХ ИНВЕСТИЦИЙ (FDI)	400
Бахтиярова Дильноза Мадминджановна	
XIZMAT KO'RSATISH TARMOQLARIDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYA VA MONOPOLIYAGA QARSHI NAZORATNING AHAMIYATI.....	407
Bekbutayev Nodirjon Fayzullayevich	
O'ZBEKISTONDA INTEGRATSIYALASHGAN YASHIL MOLİYALASHTIRISH ARHITEKTURASI: KONSEPTUAL MODEL VA AMALIY TAKLIFLAR.....	412
Quliyev Ulug'bek Mirzayevich	
BANK TIZIMI FAOLIYATI MISOLIDA MOLİYAVIY ISLOHOTLAR SHAROITIDA KORXONALAR LIKVIDLIGINI OSHIRISH MASALALARI.....	419
Iminova Nurjahan Qodirjon qizi, Karimov Sardorbek Shuxratjon o'g'li	
BOJXONA HUDUDIDA QAYTA ISHLASH BOJXONA REJIMINING SANOAT RIVOJI VA EKSPORT SALOHİYATINI OSHIRISHDAGI O'RNI	423
Baxtiyor Abduganiyev, Nodira Saidbaxromova	
СТРАТЕГИЧЕСКАЯ РОЛЬ ИНОСТРАННЫХ ИНВЕСТИЦИЙ В СТАНОВЛЕНИИ ИННОВАЦИОННОЙ ЭКОНОМИКИ И ОБЕСПЕЧЕНИИ УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ ПРОМЫШЛЕННЫХ ПРЕДПРИЯТИЙ	427
Li Kristina Alekseyevna, Элназарова Шарифа Исроиловна, Эшпулатов Достонбек Боходир огли	
TOVAR-XOMASHYO BIRJASIDA SAVDO TURLARINING SHAKLLANISHI VA ULARNING BOZOR SAMARADORLIGIGA TA'SIRI	432
Xudayberdiyev Kamoliddin Ustemirovich	
THE ROLE OF CORPORATE STRUCTURES IN THE DEVELOPMENT OF GLOBAL FINANCIAL RELATIONS.....	438
Kurbaniyazov Shakhzodbek Karimovich	
BANKLARNI MODERNIZATSIYA VA TRANSFORMATSIYA QILISH JARAYONIDA INVESTITSION KREDITLASH SAMARADORLIGINI TA'MINLASH VA UNI OSHIRISHNING ASOSIY YO'LLARI	442
Tuxsanov Eldor Dilmurod o'g'li	
KICHIK BIZNESDA RAQAMLI MARKETING: O'ZBEKISTON SHAROITIDA SAMARADORLIK VA INTEGRATSIYA MODELLARI	446
Kamilov Farxod Shamilevich	
TASHQI SAVDODA EKSPORTNING MAKROIQTISODIY AHAMIYATI	453
Abdivaliyev Shahzodbek Xayrullayevich, Mutalov Sultonbek Abduraim o'g'li, Baymanova Mavlyuda Djurayevna, Ubaydullayeva Gulchexra Erkabayevna, Aipova Iroda Ikramovna	
РАЗВИТИЕ АСПЕКТОВ МАРКЕТИНГА В СИСТЕМЕ УПРАВЛЕНИЯ СПОРТИВНЫХ ОРГАНИЗАЦИЙ.....	459
Юсупов Махамадамин, Закирова Умида Махамадаминовна	
LIZING OLUVCHI KORXONALARDA BUXGALTERIYA HISOBINI XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA YURITILISHI	462
Sadritdinov Baxodir	



YASHIL IQTISODIYOT VA KICHIK BIZNES RIVOJLANISHINING NAZARIY-KONSEPTUAL ASOSLARI	467
Isroilov Dilshodbek Rustamovich	
TEXNOLOGIK RESURLARNI BOSHQARISHDA STRATEGIYALARDAN FOYDALANISH	474
Kazakov Olim Sabirovich	
OLIY TA'LIM EKSPORT XIZMATLARINING IQTISODIY AHAMIYATI HAMDA ZARURLIGI.....	479
Abdusattarova Dildora Bohodirovna	
SANOAT KORXONASIDA INNOVATSION JARAYONLAR SAMARADORLIGINI TAHLIL QILISHNING METODIK YONDASHUVLARI.....	485
Kurbanova Shaxnoza Yuldashbayevna	
ISHLAB CHIQARISH XARAJATLARI HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI.....	491
Kafiyev Xojiakbar Xosilbek o'g'li	
BOSHQARUV HISOBINI TASHKIL QILISH YO'NALISHLARI.....	496
Xolmatov Otabek Oybek o'g'li	
INSON KAPITALIGA INVESTITSİYALAR.....	499
Sheraliyeva Saida Azatovna	
TURIZM INFRATUZILMASINI RIVOJLANTIRISH VA IQTISODIY MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISHDA KLASTER USULLARINI QO'LLASH.....	504
Mizrob Maxmudovich Tashov	
МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ПОДХОДЫ К ОЦЕНКЕ СТОИМОСТИ КОМПАНИИ В ПРОЦЕССАХ СЛИЯНИЙ И ПОГЛОЩЕНИЙ.....	514
Ли Илларион Георгиевич	
ТЕОРЕТИКО-МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ВИДОВ ЭКОЛОГИЧЕСКОГО ТУРИЗМА УЗБЕКИСТАНА.....	519
Ахмедходжаев Равшан Темурович	
УСТОЙЧИВОЕ И ЦИФРОВОЕ РАЗВИТИЕ РЕГИОНАЛЬНОГО ТУРИЗМА: ЭВОЛЮЦИЯ ТЕОРЕТИЧЕСКИХ ПОДХОДОВ И МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВАНИЯ	525
Усманова Азиза Баходировна	
O'ZBEKISTONDA TURIZMNI INNOVATSION ASOSDA RIVOJLANTIRISHNING AHAMIYATI VA ZARURIYATI.....	529
Temurbek Olimovich Mamayunusov	
КОМПЛЕКСНОЕ УЧЁТНО-АНАЛИТИЧЕСКОЕ СОПРОВОЖДЕНИЕ ПРОЦЕССОВ УПРАВЛЕНИЯ ДЕНЕЖНЫМИ ПОТОКАМИ ПРЕДПРИЯТИЯ.....	536
Эркинбаев Якуббой Хушнуд угли	
ISLOMIY MOLIYA INSTRUMENTLARINING DAVLAT QARZ BARQARORLIGINI TA'MINLASH VA QARZ SIYOSATINI TAKOMILLASHTIRISH INSTITUTSIONAL VA AMALIY QO'LLANISH IMKONIYATLARINI KENGAYTIRISH	541
Raxmatov Hamid Hasan o'g'li, Akramov Azizjon Kabirovich	
O'ZBEKISTON SUG'URTA SEKTORIDA INSTITUTSIONAL VA INVESTITSION OMILLARNING MOLIYAVIY BARQARORLIKKA QO'SHMA TA'SIRI.....	549
Fayziyev Oybek Raximovich	
INSTITUTIONALIZATION OF PUBLIC ADMINISTRATION EFFECTIVENESS: A COMPARATIVE ANALYSIS OF OECD COUNTRIES' EXPERIENCE IN GOVERNANCE FOR PUBLIC ADMINISTRATION REFORM.....	556
Sarvar Saidov Khairulloyevich	
O'ZBEKISTONDA INNOVATSION TADBIRKORLIKNI QO'LLAB-QUVVATLASHNING USTUVOR YO'NALISHLARI	562
Zaynutdinova Umida Djalalovna, Miraxmedova Maftuna Ibragimovna	
SAMARQAND VILOYATIDA TURIZMNI RIVOJLANTIRISHDA INSON KAPITALINING ROLI.....	568
Gulnora Mardievna Shadieva, Avazova Charos	
ПРАКТИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ФОРМИРОВАНИЯ ДОХОДОВ РАБОТНИКОВ ВУЗОВ В УСЛОВИЯХ ТРАНСФОРМАЦИИ СФЕРЫ УСЛУГ	572
Шадиева Гулнора Мардиевна, Рустамова Фируза	



KICHIK BIZNES KORXONALARIDA INNOVATSION FAOLIYATNI BOSHQARISH.....	578
Eminchayev Baxodir Sadikovich	
MINTAQA IQTISODIY XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHDA BARQAROR RIVOJLANISH OMILLARINING NAZARIY TAHLILI.....	583
Tuyev Abdurahmon Yusubovich	
AKTIVLAR SIFATIGA TA'SIR ETUVCHI MAKROIQTISODIY VA INSTITUTIONAL OMILLARNING TAHLILI	587
Rasulov Muxammad Bobur Fazliddin o'g'li	
TIJORAT BANKLARINING MUAMMOLI KREDITLARI (NPL) KO'RSATKICHI ORQALI BANK TIZIMI BARQARORLIGINI BAHOLASH.....	594
Xanmuratov Roushenbek Xalmuxametovich, Vaxabov A.V.	



TIJORAT BANKLARINING MUAMMOLI KREDITLARI (NPL) KO'RSATKICHI ORQALI BANK TIZIMI BARQARORLIGINI BAHOLASH

Xanmuratov Roushenbek Xalmuxammetovich

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy Universiteti

Matematik iqtisodiyot mutaxassisligi magistranti

E-mail: roushenbek2303@gmail.com

Ilmiy rahbar:

Vaxabov A.V.

i.f.d., prof.

Annotatsiya. Ushbu maqolada tijorat banklarining muammoli kreditlari — Non-Performing Loans (NPL) ko'rsatkichi orqali bank tizimi barqarorligini baholash masalalari tahlil qilinadi. Tadqiqot jarayonida NPL tushunchasining iqtisodiy mohiyati ochib berilib, uning banklarning moliyaviy barqarorligiga ta'siri nazariy va amaliy jihatdan yoritilgan. Shuningdek, tijorat banklarida muammoli kreditlarning shakllanish sabablari, ularning kredit portfeli sifati hamda bank tizimi risklariga ta'siri ko'rib chiqilgan. Maqolada bank tizimi barqarorligini baholashda NPL ko'rsatkichining asosiy indikator sifatidagi ahamiyati asoslab berilgan hamda davlat ishtirokidagi va xususiy banklar misolida muammoli kreditlar darajasining qiyosiy tahlili amalga oshirilgan. Tadqiqot natijalari bank tizimida risklarni boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish va muammoli kreditlar ulushini kamaytirishga qaratilgan amaliy takliflarni ishlab chiqishda muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Kalit so'zlar: tijorat banklari, muammoli kreditlar, NPL ko'rsatkichi, kredit portfeli sifati, bank tizimi barqarorligi, kredit risklari, moliyaviy barqarorlik, bank nazorati, risklarni boshqarish, kredit siyosati.

Abstract. This article analyzes the assessment of banking system stability through the non-performing loans (NPL) indicator of commercial banks. During the study, the economic essence of the NPL concept is revealed, and its impact on the financial stability of banks is examined from both theoretical and practical perspectives. In addition, the causes of non-performing loan formation in commercial banks, their influence on loan portfolio quality, and their impact on banking system risks are analyzed. The article substantiates the importance of the NPL indicator as a key tool for assessing banking system stability and provides a comparative analysis of non-performing loan levels using the examples of state-owned and private banks. The research findings have significant scientific and practical value for improving risk management mechanisms within the banking system and developing effective measures aimed at reducing the share of non-performing loans.

Key words: commercial banks, non-performing loans, NPL indicator, loan portfolio quality, banking system stability, credit risks, financial stability, banking supervision, risk management, credit policy.



Аннотация. В данной статье анализируются вопросы оценки устойчивости банковской системы на основе показателя проблемных кредитов — Non-Performing Loans (NPL) коммерческих банков. В ходе исследования раскрывается экономическая сущность понятия NPL, а также рассматривается его влияние на финансовую устойчивость банков с теоретической и практической точек зрения. Кроме того, изучаются причины формирования проблемных кредитов в коммерческих банках, их влияние на качество кредитного портфеля и риски банковской системы. В статье обосновывается значимость показателя NPL как ключевого индикатора оценки устойчивости банковской системы, а также проводится сравнительный анализ уровня проблемных кредитов на примере банков с государственным участием и частных банков. Результаты исследования имеют важное научно-практическое значение для совершенствования механизмов управления рисками в банковской системе и разработки эффективных мер по снижению доли проблемных кредитов.

Ключевые слова: коммерческие банки, проблемные кредиты, показатель NPL, качество кредитного портфеля, устойчивость банковской системы, кредитные риски, финансовая устойчивость, банковский надзор, управление рисками, кредитная политика.

KIRISH

Hozirgi globallashuv va moliyaviy bozorlarning jadal rivojlanishi sharoitida bank tizimining barqarorligini ta'minlash har bir mamlakat iqtisodiy xavfsizligining muhim omillaridan biri hisoblanadi. Ushbu jarayonda tijorat banklari faoliyatining samaradorligi, xususan kredit portfeli sifati va muammoli kreditlar — Non-Performing Loans (NPL) ko'rsatkichi bank tizimi barqarorligini baholashda muhim tahliliy indikator sifatida xizmat qilmoqda. NPL darajasining monitoring qilinishi banklar moliyaviy holatini baholash, likvidlikni mustahkamlash va kapital yetarililigini ta'minlash bo'yicha samarali boshqaruv qarorlarini qabul qilish imkonini beradi.

O'zbekiston Respublikasida bank tizimini isloh qilish va uni xalqaro standartlarga moslashtirish masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 5-noyabrdagi "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi O'RQ-580-son¹ Qonuni hamda Markaziy bank tomonidan qabul qilingan me'yoriy-huquqiy hujjatlarda tijorat banklarida kredit risklarini boshqarish, muammoli kreditlarni aniqlash va ularning ulushini kamaytirish bo'yicha aniq talablar belgilangan. Mazkur hujjatlar bank tizimi barqarorligini ta'minlashda NPL ko'rsatkichining muhim indikator sifatidagi o'rnini mustahkamlaydi [1].

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining bank-moliya tizimini rivojlantirishga qaratilgan farmon va qarorlarida tijorat banklarining moliyaviy barqarorligini oshirish, kredit portfeli sifatini yaxshilash hamda xalqaro prudensial me'yorlarni joriy etish ustuvor vazifalar sifatida belgilangan. "O'zbekiston – 2030" strategiyasi doirasida bank tizimida risklarni boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish, davlat ulushi mavjud banklarni transformatsiya qilish va xususiy banklar rolini kuchaytirish orqali muammoli kreditlar darajasini maqbul darajada ushlab turish ko'zda tutilgan [2].

Kelgusida bank tizimi oldida turgan asosiy vazifalardan biri muammoli kreditlarning oldini olish, ularni erta aniqlash va samarali boshqarish mexanizmlarini joriy etishdan iboratdir. Shu nuqtayi nazardan, tijorat banklarining muammoli kreditlari (NPL) ko'rsatkichi orqali bank tizimi barqarorligini baholash masalasini ilmiy va amaliy jihatdan o'rganish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Mazkur maqola aynan ushbu masalalarni tahlil qilishga bag'ishlanib, bank tizimi barqarorligini mustahkamlashga qaratilgan ilmiy xulosalar va amaliy takliflarni ishlab chiqishni maqsad qiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Tijorat banklarining muammoli kreditlari (NPL) bank tizimi barqarorligini baholashda eng muhim indikatorlardan biri hisoblanadi. NPL darajasining yuqori bo'lishi bank kredit portfeli sifatining pastligini hamda moliyaviy risklar oshganini ko'rsatadi. Xalqaro tadqiqotlar (Beck & Peria, 2011; Louzis va boshq., 2012) shuni ko'rsatadiki, NPL darajasi bank barqarorligi va iqtisodiy shoklarga chidamliligini baholashda ishonchli indikator sifatida namoyon bo'ladi.

O'zbekiston sharoitida NPL ko'rsatkichlari Markaziy bank tomonidan doimiy monitoring qilinadi. 2019-2023 yillarda tijorat banklarida NPL darajasining pasayishi kredit siyosati va risklarni boshqarish tizimi samaradorligi oshganini ko'rsatadi. NPL darajasini kamaytirish maqsadida banklar qarzlarni qayta moliyalashtirish, muammoli aktivlarni sotish hamda kredit risklarini baholash mexanizmlarini kuchaytirish choralarini qo'llamoqda [3].

O'zbekiston qonunchiligida NPL bilan bog'liq masalalar "Bank va moliya tashkilotlari faoliyatini tartibga solish to'g'risida"gi Qonun (№ 579-I, 2003-yil) hamda Markaziy bank tomonidan qabul qilingan qarorlar orqali tartibga solinadi. Shu tariqa, NPL ko'rsatkichi bank tizimi barqarorligini aniqlashda asosiy indikator sifatida

¹ O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 5-noyabrdagi "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi O'RQ-580-son Qonuni: <https://lex.uz/docs/-4581969>



xizmat qiladi va kelgusida olib boriladigan ilmiy tadqiqotlar uchun muhim nazariy hamda amaliy asos bo'lib xizmat qiladi [4].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda tijorat banklarining muammoli kreditlari (NPL) ko'rsatkichi orqali bank tizimi barqarorligini baholash maqsad qilingan. Tadqiqot jarayonida iqtisodiy-statistik tahlil, taqqoslash, dinamik tahlil hamda induktiv va deduktiv usullardan foydalanildi.

Ma'lumotlar manbai sifatida tijorat banklarining moliyaviy hisobotlari, Markaziy bankning rasmiy statistik ma'lumotlari hamda ochiq axborot manbalari tanlab olindi. NPL ko'rsatkichi bank tizimi barqarorligini ifodalovchi asosiy indikator sifatida qabul qilinib, uning kredit portfeli hajmi va vaqt bo'yicha o'zgarishi tahlil qilindi.

Tahlil natijalari asosida NPL darajasining bank tizimi moliyaviy barqarorligiga ta'siri baholanib, tegishli ilmiy xulosalar hamda amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Avvalo, muammoli kredit (NPL) tushunchasining mazmunini ko'rib chiqamiz. Muammoli kredit — NPL (Non-Performing Loan, ya'ni "muammoli kredit") qarz oluvchi tomonidan bankdan olingan kredit majburiyatlari belgilangan muddatda bajarilmayotgan holatni anglatadi. Amaliyotda kredit bo'yicha asosiy qarz yoki foiz to'lovlari 90 kun va undan ortiq muddatga kechiktirilgan bo'lsa, ushbu kredit muammoli kredit sifatida tasniflanadi.

Kreditning NPL toifasiga o'tish holatlari. Quyidagi holatlarda kredit muammoli kredit (NPL) hisoblanadi:

- kredit bo'yicha foiz to'lovlari 90 kundan ortiq muddatga kechiktirilsa;
- asosiy qarz to'lovlari 90 kundan ortiq muddat davomida amalga oshirilmasa;
- qarz oluvchining moliyaviy holati yomonlashib, kreditning o'z vaqtida qaytarilishi shubha ostida qolsa.

Muammoli kreditlarning turlari. Muammoli kreditlar xizmat ko'rsatish darajasiga ko'ra quyidagi turlarga bo'linadi:

- standart kreditlar — to'lovlar o'z vaqtida amalga oshirilayotgan kreditlar;
- substandart kreditlar — to'lovlarda kechikish mavjud bo'lsa-da, kreditning qaytarilish ehtimoli saqlanib qolgan kreditlar;
- shubhali kreditlar — qarz oluvchining moliyaviy holati jiddiy yomonlashgan va kreditni qaytarish ehtimoli past bo'lgan kreditlar;
- umidsiz kreditlar — deyarli qaytarilishi imkonsiz bo'lgan kreditlar.

NPL ko'rsatkichining salbiy oqibatlar. Banklar uchun:

- bank daromadlarining kamayishiga olib keladi;
- muammoli kreditlar bo'yicha majburiy zaxiralar (rezervlar) shakllantirilishini talab etadi;
- bank tizimining moliyaviy barqarorligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Iqtisodiyot uchun:

- kreditlash hajmining qisqarishiga sabab bo'ladi;
- tadbirkorlik subyektlari va aholi uchun moliyaviy resurslar mavjudligini cheklaydi;
- bandlik darajasining pasayishiga olib kelishi mumkin.

NPL ko'rsatkichini hisoblash usuli. Muammoli kreditlar darajasi quyidagi formula asosida aniqlanadi:

$$\text{NPL darajasi} = \frac{\text{Muammoli kreditlar hajmi}}{\text{Jami kreditlar hajmi}} \times 100\%$$

1 ta misol ham keltirib o'tsak: Masalan, agar bankning jami kreditlari 100 mlrd so'm, muammoli kreditlari esa 8 mlrd so'mni tashkil etsa, NPL darajasi 8 %ga teng bo'ladi.

Muammoli kreditlarning vujudga kelish sabablari. Muammoli kreditlarning shakllanishiga quyidagi omillar sabab bo'lishi mumkin:

- korxonalarning bankrotlik holatiga tushib qolishi;
- qarz oluvchilarning daromadlari qisqarishi;
- kredit ajratishda noto'g'ri baholash va risklarni yetarlicha tahlil qilmaslik;
- makroiqtisodiy beqarorlik va iqtisodiy inqirozlar;
- foiz stavkalari va valyuta kurslarining keskin o'zgarishi.

Muammoli kreditlarni kamaytirish yo'llari. Muammoli kreditlar darajasini pasaytirish uchun quyidagi choralar muhim hisoblanadi:

- qarz oluvchilarning moliyaviy holatini chuqur va tizimli tahlil qilish;
- kreditlarni qayta tuzish (restrukturizatsiya) amaliyotini kengaytirish;



- garov va boshqa ta'minot turlarini mustahkamlash;
- kredit portfeli ustidan doimiy monitoring va nazoratni kuchaytirish.

Ushbu tadqiqotda asosan tijorat banklarining muammoli kreditlari o'rganilib, umumiy NPL darajasi tahlil qilindi. Tadqiqot jarayoni Markaziy bank tomonidan 2025-yil 1-dekabr holatiga e'lon qilingan tijorat banklarining muammoli kreditlari to'g'risidagi ma'lumotlarga asoslandi. 2025-yilda tijorat banklarining umumiy kredit portfeli va muammoli kreditlari hajmi bo'yicha ma'lumotlardan foydalanilib, umumiy tahlil amalga oshirildi. Quyidagi jadvalda tijorat banklarining muammoli kreditlari (NPL) to'g'risidagi 2025-yil 1-dekabr holatidagi ma'lumotlar keltirilgan (1-jadval) [5].

1-jadval. Tijorat banklarining muammoli kreditlari (NPL) to'g'risidagi ma'lumotlar (2025-yil 1-dekabr holati)

№	Bank nomi	Kredit portfeli	Muammoli kreditlar (NPL)	Muammoli kreditlarning jami kreditlardagi ulushi
Jami		595 309	20 545	3,5%
Davlat ulushi mavjud banklar		401 863	14 582	3,6%
1	O'zmilliybank	104 878	3 534	3,4%
2	Agrobank	80 403	2 741	3,4%
3	O'zsanoatqurilishbank	64 937	1 981	3,1%
4	Asaka bank	41 981	1 905	4,5%
5	Xalq banki	32 837	1 107	3,4%
6	Biznesni rivojlantirish banki	24 445	1 390	5,7%
7	Mikrokreditbank	20 329	971	4,8%
8	Aloqa bank	17 912	563	3,1%
9	Turon bank	14 140	390	2,8%
Boshqa banklar		193 446	5 964	3,1%
10	Ipoteka bank	34 407	1 728	5,0%
11	Kapital bank	35 971	1 186	3,3%
12	Hamkor bank	23 352	231	1,0%
13	Ipak yo'li bank	15 827	212	1,3%
14	Orient Finans bank	13 879	67	0,5%
15	TBC bank	10 262	578	5,6%
16	Anor bank	9 593	450	4,7%
17	Davr bank	8 819	314	3,6%
18	Invest Finans bank	8 905	238	2,7%
19	Trast bank	7 885	284	3,6%
20	Tenge bank	3 914	114	2,9%
21	Asia Alliance bank	3 969	46	1,2%
22	UzKDB bank	3 469	0	0,0%
23	Hayot bank	4 205	175	4,2%
24	Ziraat bank	2 152	77	3,6%
25	Universal bank	1 973	10	0,5%
26	Garant bank	1 403	118	8,4%
27	AVO bank	790	69	8,8%
28	Apex bank	959	1	0,1%
29	Oktobank	487	0	0,0%
30	Madad Invest bank	403	2	0,5%
31	Poytaxt bank	284	51	18,0%
32	Open bank	283	1	0,2%
33	Yangi bank	188	12	6,2%
34	Uzum bank	56	0	0,0%
35	Soderot bank	11	1	6,9%



Jadvaldan ko'rinib turibdiki, bank tizimi kesimida jami kredit portfeli $\approx 595\,309,4$ mlrd so'm, jami muammoli kreditlar esa $\approx 20\,545,4$ mlrd so'mni tashkil etgan. Umumiy NPL darajasi $\approx 3,45\%$ bo'lib, bu ko'rsatkich xalqaro amaliyot nuqtayi nazaridan qabul qilinadigan o'rtacha xavf darajasi hisoblanadi (odatda 5% gacha bo'lgan daraja nisbatan barqaror deb baholanadi).

Davlat ulushi mavjud bo'lgan tijorat banklari kesimida kredit portfeli $\approx 401\,863,5$ mlrd so'm, muammoli kreditlar hajmi esa $\approx 14\,581,6$ mlrd so'mni tashkil qilgan. Ushbu banklar bo'yicha NPL darajasi o'rtacha $\approx 3,63\%$ ni tashkil etib, alohida banklar kesimida $2,8\% - 5,7\%$ oralig'ida shakllangan. Mazkur ko'rsatkichlar umumiy tizim o'rtachasidan keskin chetlanmagan.

Umumiy tahlil shuni ko'rsatadiki, davlat ulushi mavjud bo'lgan tijorat banklari hissasiga jami kreditlarning katta qismi to'g'ri keladi. Shu sababli ularda risk darajasi nisbatan yuqori bo'lib, NPL ko'rsatkichi ham tizim o'rtachasidan biroz yuqoriroq shakllanmoqda. Bunga asosan quyidagi omillar sabab bo'ladi:

- yirik investitsiya loyihalarini kreditlash;
- ijtimoiy va strategik sohalarni moliyalashtirish;
- davlat dasturlari doirasida imtiyozli kreditlar ajratish.

Davlat ulushi mavjud bo'lmagan tijorat banklari kesimida jami kredit portfeli $\approx 193\,445,97$ mlrd so'm, muammoli kreditlar hajmi esa $\approx 5\,963,86$ mlrd so'mni tashkil etgan. Ushbu banklar bo'yicha umumiy NPL darajasi o'rtacha $\approx 3,08\%$ ni tashkil etadi. Biroq alohida banklar kesimida NPL darajasi $0\% - 18\%$ oralig'ida sezilarli tafovut bilan shakllangan.

Xususan, ayrim tijorat banklari, jumladan "Poytaxt Bank" AJ, "AVO Bank" AJ va "Garant Bank" AJ faoliyatida NPL ko'rsatkichlari bank kredit portfeli holatini chuqur tahlil qilish va risklarni boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish zarurligini ko'rsatib bermoqda. Masalan, "Poytaxt Bank" AJda 2025-yilda kredit portfeli hajmi 284 mlrd so'mni, muammoli kreditlar esa 51 mlrd so'mni tashkil etgan bo'lib, ushbu ko'rsatkichlar bank tomonidan kredit siyosatini qayta ko'rib chiqish, qarz oluvchilar bilan ishlash samaradorligini oshirish va kredit portfeli sifatini yaxshilash uchun muhim tahliliy asos bo'lib xizmat qiladi. Bu jarayon bank faoliyatini yanada barqarorlashtirish va uzoq muddatli moliyaviy mustahkamlikni ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlarni kuchaytirishga imkon yaratadi.

Ayni paytda "UzKDB Bank" AJ, "OktoBank" AJ va "Uzum Bank" AJda NPL darajasi 0% ni tashkil etgan. NPL darajasining 0% bo'lishi bank kredit portfelining kichik hajmli va qaytmaslik xavfi past bo'lgan kreditlardan iborat ekanligini anglatadi. Nazariy jihatdan bu ijobiy ko'rsatkich bo'lsa-da, uni baholashda bank kredit portfeli hajmi, kreditlar muddati va hisoblash uslubi bilan birgalikda tahlil qilish zarur.

Keling endi biz umumiy Davlat ulushi mavjud bo'lgan va Davlat ulushi mavjud bo'lmagan tijorat banklari kesimida taqqoslama o'tkazaylik. Biz uni quyidagi jadvalda ko'rishimiz mumkin: (2-jadval)

2-jadval. Davlat ulushi mavjud va mavjud bo'lmagan tijorat banklari bo'yicha taqqoslama

Ko'rsatkich	Davlat ulushi mavjud bo'lgan banklar	Davlat ulushi mavjud bo'lmagan banklar
Kredit portfeli	401 863,5 mlrd so'm	193 445,9 mlrd so'm
Muammoli kreditlar	14 581,6 mlrd so'm	5 963,9 mlrd so'm
NPL darajasi	3,63 %	3,08 %

Jadvaldan ko'rinadiki, davlat ulushi mavjud bo'lmagan banklarda NPL darajasi pastroq bo'lib, kredit portfeli sifati nisbatan yuqoriroqdir. Davlat ulushi mavjud banklarda kredit hajmining katta bo'lishi risk darajasining ham yuqoriroq bo'lishini anglatadi. Shu bois ularda NPL darajasi umumiy tizim o'rtachasidan biroz yuqoriroq shakllanmoqda. Davlat ulushi mavjud bo'lmagan banklarda esa ehtiyotkor kredit siyosati, yuqori riskli yirik loyihalarni kamroq moliyalashtirish hamda savdo, xizmat ko'rsatish va chakana biznesga yo'naltirilgan kreditlash NPL darajasining past bo'lishiga xizmat qilmoqda.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalariga ko'ra, tijorat banklarining muammoli kreditlari (NPL) ko'rsatkichi bank tizimi barqarorligini baholashda muhim va ishonchli indikator hisoblanadi. NPL darajasining oshishi banklarning moliyaviy barqarorligiga, likvidligiga hamda kapital yetarililigiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. O'zbekiston bank tizimida NPL darajasi hozirgi kunda nisbatan maqbul chegarada bo'lsa-da, davlat ulushi mavjud banklarda ushbu ko'rsatkich xususiy banklarga nisbatan yuqoriroq ekani kuzatiladi. Mazkur holat bank tizimida kredit risklarini boshqarish mexanizmlarini yanada takomillashtirish zarurligini ko'rsatadi.

Takliflar:

1. Tijorat banklarida kredit berish jarayonida risklarni baholash va kredit portfeli ustidan monitoring olib borish mexanizmlarini kuchaytirish zarur.



2. Muammoli kreditlarni erta aniqlash hamda ularni qayta restrukturizatsiya qilish amaliyotini kengaytirish lozim.

3. Davlat ulushi mavjud banklarda kredit portfeli sifatini oshirishga qaratilgan institutsional islohotlarni jadallashtirish maqsadga muvofiq.

4. Markaziy bank tomonidan NPL ko'rsatkichini nazorat qilish tizimini takomillashtirish va prudensial talablarni kuchaytirish bank tizimi barqarorligini ta'minlashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi Qonuni, 2019-yil 5-noyabr, № O'RQ-580-son.: <https://lex.uz/docs/-4581969>
2. O'zbekiston Respublikasi "Markaziy bank to'g'risida"gi Qonuni, 2019-yil 11-noyabr, № O'RQ-582-son.: <https://lex.uz/docs/-4590452>
3. O'zbekiston Respublikasi "Kredit axboroti almashinuvi to'g'risida"gi Qonuni, 2025-yil 4-mart, № O'RQ-301-son.: <https://lex.uz/docs/-1878083>
4. O'zbekiston Respublikasi "To'lovga qobiliyatsizlik to'g'risida"gi Qonuni, 2024-yil 21-fevral, № O'RQ-763-son.: <https://lex.uz/uz/docs/-5957612>
5. O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining rasmiy sayti — www.cbu.uz.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2026. № 1

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>